



TO'SATDAN YURAKDAN O'LIMDA YURAKDAGI YOSHGA BOG'LIQ PATOMORFOLOGIK O'ZGARISHLAR

Xakimov Z. Q.

Mamataliev A. R.

Mamatalieva M. A.

Andijon davlat tibbiyot instituti, Andijon, O'zbekiston

Dolzarbli:

40 yoshdan keyin yurak innervastiyasidagi nerv tolalaridagi distrofik o'zgarishlar "yoshga doir denervastiyani", elektr o'tkazuvchanligini buzilishini keltirib chiqarib, oqibatida qorinchalar fibrilyastiyasi va assistoliyasiga sabab bo'ladi.

Tadqiqot maqsadi: to'satdan yurakdan o'limda yurakdagi yoshga bog'liq patomorfologik o'zgarishlarni o'rganish.

Material va uslublar: tadqiqotda to'satdan yurakdan o'lim kuzatilgan 20-70 va undan yuqori 40 tadan tadqiqot va nazorat guruhlaridagi autopsiya va sud tibbiy gistologiya materiallarida yurakning morfologik va morfometrik o'zgarishlari o'rganildi. Bunda yurakning o'lchamlari, og'irligi, kardiomiostitlarning to'liqsimon deformastiyasi va dissostiastiyasi, kontraktur o'zgarishlari, nervlaridagi distrofik o'zgarishlar o'rganildi.

Tadqiqot natijalari: Kardiomiostitlarning to'liqsimon kechish miqdori va dissostiastiyasi miqdori yoshga bog'liq xolda o'rganilganda tadqiqot guruhida nazorat guruhiga nisbatan ko'rsatkichlarni kamroq bo'lishi qayd etildi.

Yurakning chap qorinchasi kardiomiostitlarini kontraktil koeffitsienti yoshga bog'liq holda o'rganilganda nazorat guruhidagi ko'rsatkichlar tadqiqot guruhi ko'rsatkichlaridan sezilarli darajada balandroq bo'lishi kuzatildi.

To'satdan yurakdan o'limda yurakda makroskopik - miokardda ishemiya belgilari, mayda skleroz o'chog'lari, toj tomirlari o'tkazuvchanligiga ta'sir ko'rsatmaydigan intima va mediyasida 10% atrofida lipid dog'lari va fibroz pilakchalar, mikroskopik venoz to'laqlonlilik, perivaskulyar skleroz, ishemiya,



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th December, 2024

kardiomiostitlarni giperkontraktil holati, to'liqinsimon burmalanishi, fuksinofiliyasi, fragmentastiyasi kuzatildi.

Tadqiqot guruhida yurakning morfometrik tekshiruvidagi ko'rsatkichlari: yurak vazni - $330 \pm 3,3g$ ($P < 0.001$), uzunligi $10,1 \pm 0,2sm$ ($P < 0.001$), kengligi $9,4 \pm 0,3sm$ ($P < 0.01$), qalinligi $5,2 \pm 0,4sm$ ($P < 0.05$), chap qorincha devorlarining qalinligi - $1,6 \pm 0,1sm$ ($P < 0.001$), o'ng qorincha devorlarining qalinligi - $0,6 \pm 0,1 sm$ ($P < 0.001$). Ushbu ko'rsatkichlar qiyoslanganda yurakdan to'satdan o'limida u nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo'ldi. Har ikkala qorincha gistologik tekshirilganda kardiomiostitlarning 2-3-darajadagi kontraktur shikastlanishi ustunligi kuzatildi.

Chap qorinchada kontrakturalar miqdori $53,4 \pm 2,0\%$ ($P < 0.001$) tashkil qildi. Kontrakturalarni joylashishi ko'pincha chap qorinchaning oldingi, yonbosh va orqa devorlarida, asosan miokardning subendokardial va intramural bo'limlarida aniqlandi.

Yurakdan to'satdan o'limda miokardning barcha sohalarida to'liqinsimon deformastiya, shuningdek ko'rishning to'liq maydoni yoki 2/3 qismini egallagan joylashtirilgan disklar sohasidagi kardiomiostitlar dissostiastiyasi belgilarida ifodalandi. To'liqinsimon deformastiya belgilari bilan bo'lgan kardiomiostitlar miqdori $44,2 \pm 5,6\%$ ($P < 0.001$), dissostiastiya belgilari bilan bo'lgan kardiomiostitlar miqdori - $58,7 \pm 2,8\%$ -ni ($P < 0.001$) tashkil qildi.

Autopsiyalarda 1/3 xolatlarida miokardda makroskopik ishemiya belgisi sifatida notekis to'laqonlilik kuzatildi. Makroskopik mayda sklerotik o'chog'lar, kardiomiostitlarni atrofiyasi bilan namoyon bo'ldi

YuTO'-da miokardda va refleksogen sinokarotid sohalarida parallel o'zgarishlar kuzatildi. Yosh kattalashgan sari simpatik innervastiyada involyustion o'zgarishlarini ahamiyati ortib bordi. Adrenergetik terminallarni boshlang'ich reaktiv o'zgarishlari destruktiv o'zgarishlarga o'tishi kuzatildi.

To'satdan o'lgan insonlar autopsiyasida yurakning refleksogen sinokarotid sohalarida mielin tolalari va resteptorlarida reaktiv va degenerativ o'zgarishlar kuzatilib, u yurak fibrilyastiyasi bilan yakunlanishi qayd etildi.

Ushbu degenerativ o'zgarishlarda yurak etishmovchiligini rivojlanishi 40 yoshgacha bo'lgan 8%, 50 yoshgacha 24%, 60yoshgacha 30%, 60 yoshdan katta



yoshda esa 38% insonlarda kuzatildi. Yurak to'qimalari simpatik nerv tutamlari konstantrastiyasini o'zgarishi va denervastiyasini kuchayib borishidagi o'zgarishlar fibrilyastiyalarni avjlanishiga sabab bo'lishi sifatida ko'rildi.

Xulosa:

Yoshga doir o'zgarishlarni ortishi nerv tizimida organizm to'qimalarini neyrodistrofik buzilishlarini chaqiradi va natijada vissteral patologiya rivojlanishiga, to'satdan yurakdan o'lim sodir bo'lishiga olib keladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бомаш Н.Ю. Морфологическая диагностика заболеваний щитовидной железы. // М.Мед.- 1981. с. 176.
2. Свистунов В.В., Макарова А.Е., Воронцова М.В. Атеросклероз, гипертоническая болезнь. // Уч.пос.для орд. Иркутск – 2018. с. 70.
3. Хмельницкий О.К. Цитологическая и гистологическая диагностика заболеваний щитовидной железы: рук-во. - СПб.: Сотис, 2002. – с. 288.
4. Insull William. The Pathology of Atherosclerosis: Plaque Development and Plaque Responses to Medical Treatment. // The American Journal of Medicine, Vol 122, No 1A, January 2009. p. 4-13.
5. Rafieian-Kopaei M, Setorki M, Monir D. Atherosclerosis: Process, Indicators, Risk Factors and New Hopes. Int J Prev Med. 2014 Aug; 5(8): p. 927–946.
6. Алтунин А. В. Нарушения внутрисердечной гемодинамики и методы их коррекции у больных ИБС на фоне гипотиреоза. // Автореф. дис. на сос. уч.стен. к.м.н. 2004. с 25.
7. Волков В.П. Новый подход к оценке морфофункционального состояния щитовидной железы //Universum: Медицина и фармакология.: электрон.науч. журн. 2014. № 12 (13). с. 35-40.
8. Гервальд В.Я., Насонов Т.Г., Лепилов А.В. и др. Внезапная сердечная смерть. Состояние проблемы. // Международный журнал сердца и сосудистых заболеваний. 2015. Т. 3, № 6. с. 35-41.
9. Левитин А.В. Морфология щитовидной железы при острых формах ишемической болезни сердца. // Автореф. дис.на соис. к.м.н. 2010. 19 с.



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th December, 2024

-
10. Панченкова Л.А. и др. Тиреоидный статус и сердечно-сосудистая система. // Рос.мед. вести. 2000. - №1. с.18-25.
 11. Мальцева А.С., Строгонова В.В. Предикторы внезапной сердечной смерти. // Scientific Cooperation Center “Interactive plus”. 2018. с. 1-11.